



HISTORICAL DEVELOPMENT OF MALAYSIA'S POLICY OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO SMALL BUSINESS AND OPPORTUNITIES FOR ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN

Mohichekhra Boltayeva

Associate Professor (Docent), DSc

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Malaysia experience, small business, foreign investment, historical development, investment policy, industrialization, free economic zones, export, technology transfer, Uzbekistan.

Received: 01.06.26

Accepted: 02.06.26

Published: 03.06.26

Abstract: This article analyzes the historical formation, development stages, and possibilities of applying Malaysia's policy of attracting foreign investment to small business in the context of Uzbekistan. The study examines Malaysia's post-independence path of economic development, industrialization policy, establishment of free economic zones, export-oriented production, inflow of foreign capital, and mechanisms of investment cooperation with local small and medium-sized enterprises. Special attention is paid to the integration of small businesses into international production chains, the strengthening of technology transfer, and the enhancement of local entrepreneurial capacity. The article substantiates the significance of Malaysia's historical experience for the economy of Uzbekistan, particularly in attracting foreign investment to small business, developing industrial zones, expanding export potential, and supporting local business entities in entering international markets.

MALAYZIYADA KICHIK BIZNESGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SIYOSATINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Mohichexra Boltayeva

O'zbekiston Milliy univervitetining Jizzax filiali dotsenti, DSc

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Malayziya tajribasi, kichik biznes, xorijiy investitsiyalar, tarixiy rivojlanish, investitsiya siyosati, sanoatlashtirish, erkin iqtisodiy zonalar, eksport, texnologik transfer, O'zbekiston.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Malayziyada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatining tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Malayziyaning mustaqillikdan keyingi iqtisodiy taraqqiyot yo'li, sanoatlashtirish siyosati, erkin iqtisodiy zonalar, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, xorijiy kapital oqimi hamda mahalliy kichik va o'rta biznes subyektlari bilan investitsion kooperatsiya mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, Malayziya tajribasida kichik biznesni xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilish, texnologik transferni kuchaytirish va mahalliy tadbirkorlik salohiyatini oshirish omillari ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada ushbu tarixiy tajribaning O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ahamiyati, xususan, kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoat zonalarini rivojlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish va mahalliy tadbirkorlik subyektlarini xalqaro bozorlarga olib chiqishdagi amaliy imkoniyatlari asoslab beriladi.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ПОЛИТИКИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МАЛЫЙ БИЗНЕС В МАЛАЙЗИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕЁ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Мохичехра Болтаева

Доцент, DSc (доктор наук)

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: опыт Малайзии, малый бизнес, иностранные инвестиции, историческое развитие, инвестиционная политика, индустриализация, свободные

Аннотация: В данной статье анализируются историческое формирование, этапы развития и возможности применения малайзийской политики привлечения иностранных

экономические зоны, экспорт, инвестиции в малый бизнес в условиях технологический трансфер, Узбекистан. Узбекистана. В исследовании рассматриваются путь экономического развития Малайзии после обретения независимости, политика индустриализации, создание свободных экономических зон, экспортно-ориентированное производство, приток иностранного капитала, а также механизмы инвестиционной кооперации с местными субъектами малого и среднего бизнеса. Особое внимание уделяется интеграции малого бизнеса в международные производственные цепочки, усилению технологического трансфера и повышению потенциала местного предпринимательства. В статье обосновывается значение исторического опыта Малайзии для экономики Узбекистана, в частности для привлечения иностранных инвестиций в малый бизнес, развития промышленных зон, расширения экспортного потенциала и выхода местных предпринимательских субъектов на международные рынки.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, bandlikni ta'minlash, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahalliy tadbirkorlikni xalqaro qiymat zanjirlariga ulashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Malayziya tajribasi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, mazkur davlat mustaqillikdan keyingi davrda xorijiy investitsiyalar, sanoatlashtirish siyosati, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va kichik hamda o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini shakllantirdi.

Malayziyada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati tarixan bosqichma-bosqich rivojlangan. Dastlab iqtisodiyotda xomashyo va qishloq xo'jaligi ustuvor o'rin tutgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda sanoatlashtirish, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va transmilliy kompaniyalar bilan mahalliy kichik biznes subyektlari o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada

Malayziya xorijiy kapitalni faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki texnologik transfer, ishlab chiqarish madaniyati, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida samarali yo‘naltirishga erishdi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, xorijiy investorlar uchun kafolat va imtiyozlar yaratish hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning muhim huquqiy asoslaridan biri O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O‘RQ–598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni hisoblanadi. Mazkur Qonunning maqsadi chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuningdek, qonunda investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, oshkorlik va ochiqlik, investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi, adolatlilik hamda investorlarning tengligi belgilangan. Bu esa O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy-institutsional asoslari mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur qonunchilik bazasi kichik biznes subyektlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilish, qo‘shma korxonalar tashkil etish, texnologik modernizatsiyani amalga oshirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish barqaror huquqiy kafolatlar mavjud bo‘lgan sharoitda samarali natija beradi. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda nafaqat moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlar, balki huquqiy himoya, investorlarga kafolatlar, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va institutsional muhit masalalari ham asosiy omillar sifatida qaralishi lozim.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes yuqori ulushga ega bo‘lsa-da, uning xorijiy investitsiyalar, texnologik transfer, eksport kooperatsiyasi va xalqaro ishlab chiqarish zanjirlari bilan integratsiyalashuv darajasi yanada rivojlantirishni talab qiladi. Bu borada Malayziya tajribasini tarixiy yondashuv asosida o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki Malayziya tajribasi kichik biznesni xorijiy kapital bilan bog‘lash, sanoat zonalarini va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish orqali mahalliy tadbirkorlik salohiyatini oshirish, shuningdek, davlat siyosatini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Ushbu maqolada Malayziyada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatining tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning iqtisodiy va institutsional xususiyatlari hamda O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Malayziyada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatining tarixiy rivojlanishini o'rganishda, avvalo, xorijiy investitsiyalar, sanoatlashtirish, kichik biznesning investitsiya salohiyati va mahalliy tadbirkorlik muhitini takomillashtirishga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalar kichik biznes uchun nafaqat moliyaviy manba, balki texnologik transfer, ishlab chiqarish madaniyati, eksport salohiyati va xalqaro kooperatsiya aloqalarini shakllantiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi.

J.P. Kurbonov kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish masalasiga to'xtalib o'tgan. Muallif kichik biznes barqaror rivojlanishi bilan investitsiya salohiyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish, kichik biznes investitsiya salohiyatini oshirishning xorijiy tajribalarini tadqiq qilish va tizimlashtirish, shuningdek, investitsiyalar darajasining tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sirini aniqlashni asosiy vazifalar sifatida belgilaydi (Kurbanov, 2023). Uning fikricha, kichik biznes subyektlarining investitsiya salohiyatini oshirishda, avvalo, ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish, ichki va tashqi bozorlardagi talabga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda innovatsiyalarni joriy etish zarur.

B. Abduvohidov esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitining ahamiyati alohida tahlil qilingan. Muallifning ilmiy qarashlariga ko'ra, kichik biznes rivoji faqat moliyaviy resurslar hajmiga emas, balki tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun yaratilgan huquqiy, institutsional, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarga ham bevosita bog'liqdir (Abduvohidov, 2025). Tadqiqotda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish, kichik biznes subyektlari faoliyatini prognozlash, xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish hamda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Xorijiy olimlar orasida Jomo K.S. tahriri ostida chop etilgan "Industrialising Malaysia: Policy, Performance, Prospects" asari Malayziya sanoatlashtirish tajribasini tarixiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu asarda Malayziyaning eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirish siyosati xorijiy investorlarni jalb qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi (Jomo, 1993). Mualliflar fikricha, Malayziya tajribasida xorijiy kapital asosan elektronika, tikuvchilik va boshqa eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, asarda Malayziya xorijiy investorlar bilan mahalliy yetkazib beruvchilar o'rtasida orqaga bog'lanish aloqalarini shakllantirishda ma'lum natijalarga erishgani, ayrim mahalliy firmalar esa xorijiy elektronika kompaniyalariga ixtisoslashgan asbob-uskunalar,

qismlar va xizmatlar yetkazib berishga o'tgani qayd etiladi. Bu holat kichik biznesning xorijiy investitsiyalar orqali mahalliy sanoat zanjirlariga ulanish imkoniyatini ko'rsatadi.

R. Rasiyah, M.R. Mohamad va P. Sanjivee tomonidan olib borilgan tadqiqot Malayziya ishlab chiqarish sanoatidagi kichik va o'rta korxonalarining ishlab chiqarish aloqalari, texnologik intensivligi va iqtisodiy samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Mualliflar elektr-elektronika, to'qimachilik, avtomobilsozlik va yog'och mahsulotlari tarmoqlaridagi kichik va o'rta korxonalar misolida mahalliy manbalardan ta'minot olish, eksportga yo'naltirilganlik va texnologik yangilanish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilganlar (Rasiyah, Mohamad, & Sanjivee, 2011). Tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologik intensivlik mehnat unumdorligi va eksportga yo'naltirilganlik bilan ijobiy bog'liq bo'lib, mahalliy yetkazib beruvchilar va yirik xaridorlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish milliy firmalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu xulosa O'zbekiston uchun ham muhim: xorijiy investitsiyalar mahalliy kichik biznesni kuchaytirishi uchun ularni yirik investorlar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi orqali bog'lash zarur.

B.K. Kinuthia Malayziyada xorijiy investitsiyalar va sanoatlashtirish jarayonini "bozor va davlat" o'rtasidagi munosabatlar nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Muallif Malayziyada dastlabki eksportga yo'naltirilgan industrializatsiya davrida erkin savdo zonalari xorijiy kapitalni jalb qilgan bo'lsa-da, mahalliy iqtisodiyot bilan texnologik va ishlab chiqarish aloqalari yetarli darajada shakllanmaganini qayd etadi (Kinuthia, 2011). Shu sababli keyingi bosqichlarda Malayziya hukumati mahalliy aloqalarni chuqurlashtirish, Bumiputra kichik va o'rta biznesini rivojlantirish hamda milliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga e'tibor qaratgan. 1996-yilda Small and Medium Industries Development Corporation — SMIDEC tashkil etilishi esa Malayziyada kichik va o'rta korxonalarini maslahat, moliyaviy yordam, infratuzilma va bozorga chiqish imkoniyatlari orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus institutsional bosqichni boshlab bergan. Bu tajriba O'zbekistonda kichik biznesni xorijiy investorlar bilan bog'laydigan alohida institutsional platformalarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

S. Karikomi tomonidan tayyorlangan "The Development Strategy for SMEs in Malaysia" tadqiqotida Malayziya ASEAN mamlakatlari orasida FDI jalb qilish va eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirishni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega davlat sifatida baholanadi (Karikomi, 1998). Muallifning fikricha, sanoatlashuvning keyingi bosqichida faqat yig'uv ishlab chiqarishlarni jalb qilish yetarli emas; aksincha, avtomobilsozlik, elektrotexnika va elektronika kabi tarmoqlar uchun qismlar, komponentlar, texnologik xizmatlar va yordamchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish zarur. Karikomi qo'llab-quvvatlovchi sanoatlarning asosiy qismini kichik va o'rta korxonalar tashkil etishini ta'kidlaydi. Demak, Malayziya tajribasida kichik

biznesning xorijiy investitsiyalar bilan bog'lanishi, avvalo, yirik transmilliy kompaniyalarga xizmat ko'rsatuvchi va ular uchun qismlar yetkazib beruvchi mahalliy korxonalarni rivojlantirish orqali amalga oshirilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Malayziyada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati tarixan uch asosiy yo'nalishda rivojlangan: birinchidan, eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirish orqali xorijiy kapitalni jalb qilish; ikkinchidan, erkin savdo zonalari va sanoat hududlari orqali transmilliy kompaniyalar faoliyatini kengaytirish; uchinchidan, mahalliy kichik va o'rta biznesni xorijiy investorlar bilan kooperatsion aloqalarga ulash.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Malayziyada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda tarix fanlariga xos bo'lgan tarixiy-qiyosiy metod asosiy metodologik yondashuv sifatida tanlandi. Ushbu metod Malayziyada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatining turli tarixiy bosqichlarda qanday shakllangani, kichik va o'rta biznesning sanoatlashtirish jarayonidagi o'rni qanday o'zgargani hamda ushbu tajribani qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Malayziyada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati tarixan mamlakatning sanoatlashtirish strategiyasi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish modeli va erkin savdo zonalari faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Mustaqillikdan keyingi dastlabki bosqichlarda Malayziya iqtisodiyoti asosan xomashyo va qishloq xo'jaligiga tayanar edi. Keyingi davrlarda esa davlat iqtisodiy siyosati import o'rnini bosuvchi sanoatlashtirishdan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga o'tdi. Ayniqsa, 1970-yillardan boshlab erkin savdo zonalari va litsenziyalangan ishlab chiqarish omborlari tashkil etilishi xorijiy kompaniyalarni ishlab chiqarish sektoriga jalb qilishda muhim tarixiy bosqich bo'ldi. B.K. Kinuthia tadqiqotida qayd etilishicha, 1970-yillarning boshlariga kelib Malayziya hukumati eksportga yo'naltirilgan sanoatlarni rag'batlantirishga faol kirishgan, erkin savdo zonalari va Licensed Manufacturing Warehouses tizimi esa xorijiy firmalarni jalb qilish uchun tashkil etilgan (Kinuthia, 2011).

Malayziya tajribasida xorijiy investitsiyalar dastlab yirik transmilliy kompaniyalarni jalb qilish vositasi sifatida xizmat qilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda mahalliy kichik va o'rta biznes subyektlarini ushbu kompaniyalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasiga ulash vazifasi dolzarb bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, elektronika, elektrotexnika, avtomobilsozlik, to'qimachilik va qo'llab-quvvatlovchi sanoatlar rivojida yaqqol ko'rindi. Malayziya sanoatlashuvining tarixiy natijasi

shundan iboratki, xorijiy kapital nafaqat moliyaviy resurs, balki texnologik transfer, yangi boshqaruv tajribasi va eksport bozorlariga chiqish vositasiga aylandi.

Statistik ma'lumotlar Malayziyada kichik va o'rta biznes iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi. Malayziya Statistika departamenti ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda mikro, kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat 652,4 mlrd Malayziya ringgitini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Malayziya yalpi ichki mahsulotining 39,5 foiziga teng bo'lgan. Shuningdek, MSME sektori 2024-yilda 5,8 foizga o'sgan, bu esa mamlakat umumiy YAIM o'sish sur'ati — 5,1 foizdan yuqoridir. 2023-yilda esa MSME sektori 616,6 mlrd ringgit qo'shilgan qiymat yaratib, iqtisodiyotning 39,1 foizini tashkil qilgan edi (Department of Statistics Malaysia, 2025). Ushbu dinamika Malayziyada kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi roli yildan-yilga kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Kichik biznes subyektlari soni ham Malayziyada barqaror o'sish tendensiyasiga ega. 2023-yilgi iqtisodiy ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Malayziyada MSME subyektlari soni 907 065 tadan 1 069 831 taga yetgan. Bu davrda ularning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 2,4 foizni tashkil qilgan. Tarmoqlar bo'yicha eng katta ulush xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, 936 793 ta korxonalar yoki 87,6 foizni tashkil etgan. Qurilish sohasida 69 015 ta korxonalar yoki 6,5 foiz, ishlab chiqarish sanoatida esa 51 481 ta korxonalar yoki 4,8 foiz faoliyat yuritgan (Department of Statistics Malaysia, 2023). Bu ko'rsatkichlar Malayziyada kichik biznesning asosiy qismi xizmatlar sohasida jamlangan bo'lsa-da, xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq sanoat kooperatsiyasi uchun ishlab chiqarish tarmog'i strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar bo'yicha Malayziya xalqaro kapital oqimlarini jalb qilishda uzoq tarixiy tajribaga ega. UNCTADstat ma'lumotlariga ko'ra, Malayziyaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirimi 2005-yilda 4 065,39 mln AQSh dollarini, 2010-yilda 9 060,04 mln AQSh dollarini, 2015-yilda 10 082,34 mln AQSh dollarini, 2024-yilda esa 11 258,92 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Bu raqamlar Malayziyada FDI oqimi uzoq muddatli davrda o'sib borganini, biroq ayrim yillarda global iqtisodiy vaziyatga bog'liq tebranishlar bo'lganini ko'rsatadi (UNCTADstat, 2025). Mazkur tarixiy dinamika Malayziyaning investitsiya siyosati eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirish bilan bog'liq holda shakllanganini tasdiqlaydi.

Malayziya tajribasining yana bir muhim natijasi shundaki, mamlakat xorijiy investitsiyalarni faqat kapital oqimi sifatida emas, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro qiymat zanjirlariga ulash vositasi sifatida baholagan. Bu borada kichik va o'rta biznesni transmilliy kompaniyalar bilan bog'lash, mahalliy yetkazib beruvchilar tarmog'ini rivojlantirish, texnologik standartlarni oshirish hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash

siyosati muhim o‘rin tutgan. Aynan shu jihat Malayziya tajribasini O‘zbekiston uchun dolzarb qiladi.

O‘zbekiston bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda ham kichik biznes iqtisodiyotning muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 753 226,9 mlrd so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratilgan va bu yalpi qo‘shilgan qiymatning 54,3 foizini tashkil etgan. Kichik biznes sanoatda 286 675,2 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan bo‘lib, umumiy sanoat hajmidagi ulushi 32,4 foizga teng bo‘lgan. Qurilish sohasida kichik biznesning ulushi 76,5 foiz, qishloq xo‘jaligida 95,2 foiz, chakana savdoda 84,0 foiz, xizmatlar sohasida esa 57,0 foizni tashkil etgan (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2025).

Xorijiy investitsiyalar bo‘yicha O‘zbekistonda ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yanvar–mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan 33,3 trln so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,5 barobar ko‘pdir. Hududlar kesimida FDI ulushi Jizzax viloyatida 50,1 foiz, Buxoro viloyatida 45,5 foiz va Qashqadaryo viloyatida 44,0 foizni tashkil etgan (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2024). Bu holat O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni hududiy sanoat rivoji va kichik biznes kooperatsiyasi bilan bog‘lash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Malayziya va O‘zbekiston tajribalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida bir nechta muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, O‘zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi Malayziyaga nisbatan yuqoriroq: O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik yalpi qo‘shilgan qiymatning 54,3 foizini tashkil etsa, Malayziyada MSME sektori YAIMning 39,5 foizini tashkil etadi. Biroq Malayziyada kichik biznes xorijiy investitsiyalar, eksportga yo‘naltirilgan sanoat va texnologik transfer bilan ko‘proq bog‘langan. Ikkinchidan, Malayziya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkin savdo zonalari va sanoat hududlari xorijiy investorlarni jalb qilish bilan birga, mahalliy kichik biznesni yetkazib beruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi subyekt sifatida rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Uchinchidan, O‘zbekiston uchun eng muhim vazifa xorijiy investitsiyalarni kichik biznesga bevosita yoki bilvosita ulash, ya’ni “FDI–SME linkage” mexanizmini kuchaytirishdan iborat.

Tahlil natijalari asosida O‘zbekiston sharoitida Malayziya tajribasidan foydalanishning quyidagi yo‘nalishlari ustuvor deb hisoblanadi: kichik biznes subyektlarini yirik xorijiy investorlar bilan kooperatsiyaga ulash; sanoat zonalari tarkibida mahalliy yetkazib beruvchilar bazasini shakllantirish; eksportga yo‘naltirilgan kichik korxonalarini alohida qo‘llab-quvvatlash; texnologik transfer va sifat standartlarini joriy qilish; xorijiy investitsiya ishtirokidagi loyihalarda mahalliy

kichik biznes ulushini oshirish; kichik biznes uchun investitsion tayyorgarlik, biznes-reja, sertifikatlash va eksport bo'yicha maslahat markazlarini rivojlantirish.

Ko'rsatkich	Malayziya	O'zbekiston
Kichik biznes / MSME sektorining iqtisodiyotdagi ulushi	2024-yilda YAIMning 39,5%	2024-yilda yalpi qo'shilgan qiymatning 54,3%
Kichik biznes / MSME qo'shilgan qiymati	2024-yilda RM652,4 mlrd	2024-yilda 753 226,9 mlrd so'm
MSME / kichik biznes o'sish sur'ati	2024-yilda 5,8%	Tarmoqlar bo'yicha alohida statistikada beriladi
Korxonalar soni	MSMElar 1 069 831 ta	Stat.uz ochiq bazasida kichik biznes bo'yicha alohida dinamik ko'rsatkichlar berilgan
FDI kiritimi	2024-yilda 11 258,92 mln AQSh dollari	2024-yil I chorakda FDI hisobidan 33,3 trln so'm investitsiya
Tarixiy FDI dinamikasi	2005: 4 065,39 mln \$; 2010: 9 060,04 mln \$; 2015: 10 082,34 mln \$; 2024: 11 258,92 mln \$	2024-yil I chorakda 2023-yil mos davriga nisbatan 2,5 barobar o'sish
Asosiy tarixiy mexanizm	Erkin savdo zonalari, eksportga yo'naltirilgan sanoat, TNC-SME kooperatsiyasi	Erkin iqtisodiy zonalar, hududiy investitsiya loyihalari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash

Umuman olganda, Malayziya tajribasi tarixiy jihatdan shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati kichik biznes rivoji bilan bog'lanmaganda uning mahalliy iqtisodiyotga ta'siri cheklangan bo'lib qoladi. Aksincha, xorijiy investorlar, sanoat zonalari, eksport siyosati va mahalliy kichik biznes o'rtasida uzviy aloqa shakllantirilsa, xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotda texnologik yangilanish, bandlik, eksport va tadbirkorlik salohiyatining oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli O'zbekiston uchun Malayziya tajribasining eng muhim sabog'i — xorijiy investitsiyalarni faqat yirik loyihalarga emas, balki mahalliy kichik biznesni xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga bog'lovchi tizimli mexanizm sifatida yo'naltirishdan iborat.

Xulosa. Malayziyada kichik biznesga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatining tarixiy rivojlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy kapital, sanoatlashtirish siyosati, erkin savdo zonalari va mahalliy kichik hamda o'rta biznes subyektlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim o'rin tutgan. Malayziya dastlab xomashyo va qishloq xo'jaligiga tayangan iqtisodiyotdan bosqichma-bosqich eksportga yo'naltirilgan sanoatlashgan iqtisodiyotga o'tishga erishdi. Bu jarayonda xorijiy investitsiyalar faqat moliyaviy resurs sifatida

emas, balki texnologik transfer, ishlab chiqarish madaniyati, xalqaro standartlar va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Malayziya tajribasining asosiy ustunligi xorijiy investorlar faoliyatini mahalliy iqtisodiyot, xususan, kichik va o'rta biznes subyektlari bilan bog'lashga qaratilgan siyosatda namoyon bo'ladi. Erkin savdo zonalari, sanoat hududlari, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va yirik transmilliy kompaniyalar bilan mahalliy yetkazib beruvchilar o'rtasidagi kooperatsion aloqalar kichik biznesning rivojlanishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, elektronika, elektrotexnika, avtomobilsozlik, to'qimachilik va xizmat ko'rsatish sohalarida kichik biznes xorijiy investitsiyalar ta'sirida ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashgan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining investitsion tayyorgarligini oshirish, biznes-reja tuzish, xalqaro sertifikatlash, eksport bozorlarini o'rganish va raqamli savdo platformalaridan foydalanish bo'yicha maslahat va qo'llab-quvvatlash markazlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa mahalliy tadbirkorlarning xorijiy investorlar bilan teng huquqli va samarali hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbonov J. P. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari: Andijon viloyati misolida: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2023.
2. Abduvohidov B. Ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
3. Industrialising Malaysia: Policy, Performance, Prospects / ed. by K. S. Jomo. – London; New York: Routledge, 1993.
4. Rasiah R., Mohamad M. R., Sanjivee P. Production linkages, technological intensities and economic performance: Small and medium enterprises in Malaysian manufacturing // Asian Journal of Technology Innovation. – 2011. – Vol. 19, No. 2. – P. 279–296.
5. Kinuthia B. K. Markets vs. Government: Foreign Direct Investment and Industrialization in Malaysia // Journal of International and Global Economic Studies. – 2011. – Vol. 4, No. 2. – P. 1–26.
6. Karikomi S. The Development Strategy for SMEs in Malaysia. – Tokyo: Institute of Developing Economies, Japan External Trade Organization, 1998.

7. Department of Statistics Malaysia. Micro, Small & Medium Enterprises (MSMEs) Performance 2024 [Electronic resource]. – URL: <https://www.dosm.gov.my/portal-main/release-content/micro-small--medium-enterprises-msmes-performance-2024> (date of access: 11.06.2026).

8. Department of Statistics Malaysia. Economic Census 2023: Profile of Small and Medium Enterprises.

<https://www.dosm.gov.my/portal-main/release-content/economic-census-2023-profile-of-small-and-medium-enterprises>

UNCTADstat. General Profile: Malaysia.

<https://unctadstat.unctad.org/CountryProfile/GeneralProfile/en-GB/458/index.html>

Bu manbada Malayziyaning 2005, 2010, 2015 va 2024-yillardagi FDI kirimlari ko‘rsatilgan.

9. Kinuthia, B. K. (2011). Foreign Direct Investment and Industrialization in Malaysia.

https://www.scielo.org.mx/scielo.php?pid=S1665-20452011000200006&script=sci_arttext

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik statistikasi.

<https://stat.uz/en/official-statistics/small-business-and-entrepreneurship>

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar.

<https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/54362-o-zbekiston-respublikasi-bo-yicha-to-g-ridan-to-g-ri-xorijiy-investitsiyalar-3>